



FEATURES OF THE RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND THE ARAB ERA OF THE PERSIAN GULF

Furqat Nadjimov

Master's student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Asia, Persian Gulf region, development strategy of New Uzbekistan, UAE, Kingdom of Saudi Arabia, ACWA Power Company

Received: 11.05.23

Accepted: 13.05.23

Published: 15.05.23

Abstract: This article aims to reveal the relations between Uzbekistan and the Arab states of the Persian Gulf. The article analyzes the bilateral relations between Uzbekistan and the Arab countries of the region, the dynamics of development of mutual cooperation, and the priority directions of cooperation.

O'ZBEKISTON VA FORS KO'RFAZI ARAB DAVLARLARI O'RTASIDAGI MUNOSABATLARI XUSUSIYATLARI

Furqat Nadjimov

Magistratura talabasi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Fors Ko'rmafi mintaqasi, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, BAA, Saudiya Arabistoni Podshohligi, ACWA Power kompaniyasi

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston va Fors Ko'rfazi arab davlatlari o'rtasidagi munosabatlarni ochib berishga qaratilgan. Maqolada O'zbekiston va mintaqa arab davlatlari o'rtasidagi ikki tomonlama aloqalar, o'zaro hamkorlikning rivojlanish dinamikasi, hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari tahlil etilgan.

ОСОБЕННОСТИ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ УЗБЕКИСТАНА И АРАБСКОЙ ЭПОХИ ПЕРСИДСКОГО ЗАЛИВА

Фуркат Наджимов

студент магистратуры

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Центральная Азия, регион Персидского залива, стратегия развития Нового Узбекистана, ОАЭ, Королевство Саудовская Аравия, ACWA Power Company

Аннотация: В данной статье ставится задача раскрыть отношения между Узбекистаном и арабскими государствами Персидского залива. В статье анализируются двусторонние отношения между Узбекистаном и арабскими странами региона, динамика развития взаимного сотрудничества, приоритетные направления сотрудничества.

KIRISH

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri Fors ko‘rfazi arab davlatlari bilan hamkorlikni kengaytirish hisobalanadi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston va Fors ko‘rfazi arab mamlakatlari o‘rtasida ikki va ko‘p tomonlama aloqalar faol rivojlanib bormoqda. O‘zbekiston Fors ko‘rfazi arab davlatlari bilan hamkorligining asosiy ustuvor yo‘nalishlari iqtisodiy manfaatlari asosida qurilgan bo‘lib, mintaqada davlatlarining investitsion salohiyatidan O‘zbekiston taraqqiyotida keng foydalanishga erishishga asoslangan.

O‘z navbatida Fors ko‘rfaz arab davlatlari, xususan, Saudiya Arabistoni va Birlashgan arab amirliklari uzoq kuzatuvdan keyin Markaziy Osiyo davlatlariga katta miqdordagi sarmoyalarni yo‘naltira boshladi. Birlashgan Arab Amirliklari va Saudiya Arabistoni asosan energetika sektoriga sarmoya kiritayotgan bo‘lsa, Ummon Sultonligi mintaqaning transport sohasiga qiziqish bildirgan, Tojikiston va Qirg‘izistonda masjidlar qurishga mablag‘ ajratayotgan Qatar davlatining asosiy maqsadi bugungi kunda biroz noma‘lumligicha qolmoqda[1]. Qatar omili ko‘proq Afg‘oniston muammolarini hal qilish fonida faol aktor sifatida namoyon bo‘lmoqda. Biroq Qatar O‘zbekistonda 2023 yil boshida o‘z elchixonasini ochishi va 2023-yil 12-aprelda O‘zbekiston Prezidentiga ishonch yorlig‘ini topshirishi [2] Qatar ham Markaziy Osiyo faol siyosiy jarayonlarga jalb etilayotganligini anglatadi. Demak, so‘nggi yillarda O‘zbekiston va Yaqin sharq arab davlatlari o‘rtasidagi munosabatlarning faollashuvi kuzatilmoqda.

ASOSIY QISM

2017-yilda xalqaro va ichki vaziyatning kuchayishi sharoitida mamlakatning yangi Prezidenti Sh.Mirziyoyev O‘zbekiston tashqi siyosatini rivojlantirishning yangi strategiyasini[3] qabul qilish tashabbusi bilan chiqadi. Unda Markaziy Osiyo mintaqasi va uning yaqin qo‘shnilariga ustuvor ahamiyat qaratiladi. Shundan so‘ng 2017-yil may oyida BAA tashqi ishlar va xalqaro hamkorlik vaziri Shayx Abdulla bin Zaid Al Naxayan, 2018-yilda Misr prezidenti Abdulfattox as Sisining Toshkentga tashriflari va 2019-yil 24-26 mart kunlari Prezident Sh.Mirziyoyevning BAAga tashrifi arab-o‘zbek munosabatlari rivojida yangi bosqichni boshlab beradi.

O‘zbekiston tashqi siyosiy konsepsiyasi va bir qator hujjatlarda xalqaro hamkorlik uchun ochiqligi belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan hujjatda *95-maqсад* sifatida - An’anaviy hamkorlarimiz bilan munosabatlarni yanada rivojlantirish, tashqi aloqalar geografiyasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratib, iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish qayd etilgan[4]. Unda “Arab davlatlari (BAA, Saudiya Arabistoni, Quvayt, Qatar, Misr) bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarda o‘zaro hamkorlikni jadallashtirish” masalasi alohida vazifa sifatida belgilangan.

O‘zbekiston va Fors ko‘rfazi arab davlatlari o‘rtasidagi munosabatlarini *ikki davrga* ajratish mumkin. Dastlabki davr 1991-2016 yillar bo‘lib, bu davrda Fors Ko‘rfazi va Yaqin Sharq arab davlatlari bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatildi va hamkorlikning dastlabki asoslari yaratildi. Mamlakatning birinchi prezidenti Islom Karimovning arab mamlakatlaridagi tashriflarida erishilgan qator davlatlararo kelishuvlar O‘zbekiston Respublikasining arab davlatlari bilan hozirgi o‘zaro munosabatlarini faollashtirishda asos bo‘lib xizmat qildi. Xususan, Quvaytga (2004 y.), Misrga (2007 y.), BAAGA (2008 y.), Ummonga (2009 y.) tashriflar shular jumlasidandir. Shu bilan birga O‘zbekiston va Fors ko‘rfazi mamlakatlari, xususan, Saudiya Arabistoni o‘rtasida imzolangan kelishuvlar to‘la amalga oshirilmadi. Bu ko‘p jihatdan Yaqin Sharq va Afg‘onistonda davom etgan beqarorlik, 1999 yilda Toshkentda sodir etilgan terrorchilik harakatlari va 2001 yil voqealari sharoitida saqlanib qolgan davlatlararo ishonchsizlik bilan bog‘liq edi. O‘z navbatida, O‘zbekiston ham arab olamining barcha imkoniyatlari va xavflarini sinchiklab o‘rgandi.

Hamkorlikning ikkinchi bosqichi bu 2017-yildan bugungi kunga qadar. Bu davrda O‘zbekiston Prezidenti sifatida Sh.Mirziyoyevning hokimiyat tepasiga kelishi Fors Ko‘rfazi arab davlatlari bilan hamkorlikda yangi davrni boshlab berdi. Ikki tomonlama tashriflarda siyosiy-iqtisodiy hamkorlik masalalari keng muhokama qilinish jarayoni boshlandi va iqtisodiy loyihalar faollashdi.

O‘zbekiston va Fors Ko‘rfazi Arab davlatlari o‘rtasidagi hamkorlikning kengayishi iqtisodiy manfaatdorlik va siyosiy aloqalarning mustahkamlanishi bilan paralel yuz bermoqda. Jumladan O‘zbekiston prezidenti Sh.M.Mirziyoyev davrida o‘zaro aloqalarda ayrim harakatlarni kuzatishimiz mumkin[5]:

Birlashgan Arab Amirliklari bilan 2018-yil 5-dekabr kuni Abu-Dabi shahrida O‘zbekiston Respublikasi va Birlashgan Arab Amirliklari Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida siyosiy maslahatlashuvlarning 1-davradi o‘tkazildi. Ikkitomonlama munosabatlarning shartnomaviy-huquqiy asosini davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo doirasida imzolangan 20 ta ekstratsiya, jinoit ishlarda yordam, havo qatnovi, savdo-iqtisodiy hamkorlik, ikkitomonlama daromad

solig'idan qichish, fan va texnika va boshqa sohalardagi hamkorlikni qamrab oluvchi hujjat tashkil etadi.

2018-yilning 11 oyi davomida ikki tomonlama tovar aylanmasi hajmi \$123,8 mln. dollarga yetdi. Bunda eksport - \$52,2 mln. doll., import \$71,6 mln. dollarni tashkil qildi. Hozirgi kunda O'zbekiston hududida Amirliklar sarmoyalari ishtirokida 92 ta korxonalar tuzilgan bo'lib, ulardan 36 tasi 100% Amirliklar kapitali asosida tashkil qilingan.

2018-yilning yanvar va oktabr oylarida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari boshchiligidagi delegatsiyaning BAAGA tashrifi bo'lib o'tdi. O'zbekiston-Amirliklar muzokaralarida savdo-iqtisodiy hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

BAA Savdo-sanoat palatasi rahbari o'rinbosari I.al-Mahmud boshchiligidagi delegatsiyaning O'zbekistonga tashrifi chog'ida, 2018-yil 3-oktabrda Toshkentda O'zbekiston-Amirliklar ishbilarmonlari ishtirokida biznes forum o'tkazildi.

Saudiya Arabistoni Podshohligi. 2017-yil 21-may O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistoni Podshohi Salmon bin Abdulaziz Ol-Saudning taklifiga binoan Saudiya Arabistonida bo'lib, arab-musulmon va Qo'shma Shtatlar sammitida ishtirok etdi. Sammit doirasida O'zbekiston Prezidenti bir necha davlat rahbarlari, jumladan, Saudiya Arabistoni Podshohi bilan uchrashdi.

2018-yil 27-mart Saudiya Arabistoni tashqi ishlar vazirining o'rinbosari A.Mirdad boshchiligidagi delegatsiya Afg'oniston bo'yicha "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik va mintaqaviy hamkorlik sohasidagi hamkorlik" deb nomlangan Toshkent konferentsiyasida ishtirok etdi. 2019-yil 20-26-yanvar kunlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Din ishlari bo'yicha qo'mita raisi J.Akramov boshchiligidagi hay'at Saudiya Arabistoniga tashrif buyurdi. Tashrif chog'ida Saudiya Arabistoni Podshohligi Haj va Umra ishlari vaziri Salih Bintayn bilan uchrashuv o'tkazildi.

O'mon Sultonligi. 2018-yil 15-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.Aripov va O'mon meros va madaniyat vaziri Haisam ibn Tariq al-Said Ummon tomonining moliyaviy yordami bilan qurilgan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining yangi binosining ochilish marosimida ishtirok etdi.

So'nggi yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotining turli sohaslariga sarmoya kiritishda Fors ko'rfazi arab davlatlari orasida BAA mutloq yetakchi, keyingi o'rinda esa Saudiya Arabistoni turadi. Ularning sog'lom raqobati so'nggi 2 yil ichida O'zbekistonda ko'zga tashlanadi. O'zbekistondagi an'anaviy va muqobil energiya tarmoqlarini rivojlantirish uchun avval Amirlikning Masdar va Mubadala Development kompaniyalari 2019 yilda 10 milliard AQSh dollari miqdorida sarmoya kiritgan bo'lsa, 2020 yilda Saudiya Arabistonining ACWA Power

kompaniyasi xuddi shu sohaga 2,5 milliard AQSh dollarini ajratdi. Ko'rfaz arab davlatlari orasida katta sarmoyaviy imkoniyatlarga ega davlatlardan yana biri – Qatar davlati hisoblanadi. U hozircha katta sarmoyaviy bitimlar tuzmayotgan bo'lsada, Saudiya Arabistoni va BAA tomonidan Eron bilan faol hamkorlik qilishda ayblanadigan Qatarning Markaziy Osiyoda faollashuvi Saudiya Arabistonining ham, Amirlikning ham manfaatlariga mos kelmaydi [1].

Bularning barchasi Fors Ko'rfazi arab davlatlarining Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston bilan aloqalarni mustahkamlashdan manfaatdor ekanligini ko'rsatadi. Bu bir tarafdin geoiqtisodiy manfaatlariga asoslangan bo'lsa, boshqa tomonda Fors Ko'rfazi ichida va uning tevaragidan shakllangan geosiyosiy raqobat bilan ham bog'liqdir.

XULOSA

Tahlil etilgan va o'rganilgan ma'lumotlar asosida O'zbekistonning Fors Ko'rfazi arab davlatlari bilan munosabatlari borasida quyidagilarni xulosa sifatida bildirish mumkin:

1. O'zbekiston va Fors Ko'rfazi arab davlatlari qadimdan o'zaro hamkorlik aloqalariga ega. Ikki mintaqaning tarixiy va sivilizatsion jihatdan yaqinligi, islom diniga e'tiqod qilishi hamda davlatchilik taraqqiyotida o'zaro aloqadorliklarning mavjudligi O'zbekiston va Fors Ko'rfazi arab davlatlari o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishiga zamin yaratmoqda.

2. O'zbekistonning Fors Ko'rfazi arab davlatlari bilan hamkorlik munosabatlari 1991 yildan boshlangan bo'lib, bugungi qunga qadar o'ziga xos ikki davrni qamrab oladi. Birinchi davr 1991-2016, ikkinchi davr 2016 yildan bugungi kunga qadar. Asosiy farli jihatlar birinchi davrda ikki tomonlama hamkorlikning poydevori yaratildi, biroq o'zaro ishonchsizlik muhitining mavjudligi va mafkuraviy elementlar bilan bog'liq xavfsizlik parametrlari aloqalarning faol rivojlanishiga imkon bermadi deyish mumkin. Ikkinchi dars deb hisoblanayotgan Sh.M.Mirziyoyev prezidentligi davrida O'zbekiston Fors Ko'rfazi arab davlatlari bilan iqtisodiy hamkorlikka va investitsion muhitni yaxshilashga keng e'tibor qaratmoqda. Boshqa tomonda O'zbekiston o'z tashqi siyosatida tashqi iqtisodiy hamkorlik yo'llarini difersifikatsiya qilishga intilmoqda.

3. Fors Ko'rfazi Arab davlatlari tomonidan Markaziy Osiyo salohiyatli bozor va muhim geosiyosiy mintaqasi sifatida to'liq qabul qilinmayapti yoki yetarlicha baholanmayapti. Shu bois Fors Ko'rfazi arab davlatlari bilan imzolangan shartnomalar va harakatlar to'liq o'z samarasini berayotganligi yo'q. Shunday bo'lsada, Saudiya Arabistoni, BAA, Qatar, Ummon va Quvatning Markaziy Osiyo intilishi iqtiboldagi iqtisodiy manfaatdorlik hamda mintaqasi chegarasida shakllangan o'zaro geosiyosiy raqobat fonida yuz bermoqda.

4. O'zbekistonning hozirda Fors Ko'rfazi Arab davlatlari bilan hamkorligining muhim jihati bu energetika sohasida bo'lib, O'zbekiston iqtisodiy rivojlanining drayveri sifatida ko'rilgan enegratika muammolarini arab davlatlari tajribasi va investitsiyasi orqali yengillatishga ham

intilmoqda. Bu esa O‘zbekistonning Rossiya, Xitoy va boshqa yetakchi davlatlari bilan munosabatlarda muvozanatni saqlab qolishida muhim ahamiyatga ega deyishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Raxmatov X. O‘zbekiston va Arab davlatlarining o‘zaro munosabatlari dinamikasi // SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal // Volume: 1, ISSUE: 3. -R.153.
2. Rabbimov K. Qatarning O‘zbekistonda elchixonona ochib, elchi yuborishi ijobiy hodisa // <https://daryo.uz/k/2023/04/12/qatarning-ozbekistonda-elchixonona-ochib-elchi-yuborishi-ijobiy-xodisa-siyosatshunos-kamoliddin-rabbimov> - 12.04.2023
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son // <https://lex.uz/acts/3107036>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>
5. O‘zbekiston Respublikasining O‘rta, Yaqin Sharq va Afrika davlatlari bilan hamkorligi // O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy sayti // <https://www.mfa.uz/uz/pages/with-asia-africa> - 03.04.2023